

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE SEMANTIC ANALYSIS OF GRAMMATICAL DEVICES EXPRESSING CAUSE-AND-EFFECT MEANING WITH NEGATIVE CONSEQUENCES IN THE KOREAN LANGUAGE

Nigora Nosirova*Lecturer, Department of Korean Philology, Faculty of Oriental Languages**Samarkand State Institute of Foreign Languages*nigoranosirova0702@gmail.com*Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: semantic category, pragmatic meaning, cause-and-effect relation, negative consequence, -아서/어서, -기 때문에, -느라고.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: One of the most important functions of language is to express human thought, including both emotional and logical ideas. Among such cognitive relations is the connection between cause and effect. The category of causality is one of the fundamental logical principles of human thinking and is expressed in all natural languages through specific grammatical and lexical means. The way in which cause-and-effect relations are expressed in each language is shaped by its semantic system, morphological structure, and syntactic organization. The Korean language is no exception in this regard. In Korean, causal meaning is mainly expressed through suffixes (어미), conjunctive endings (연결어미), and certain lexical units. In particular, forms such as -아서/어서, -기 때문에, -느라고 not only express causal relationships with negative consequences but also demonstrate various semantic and pragmatic nuances. This scientific article analyzes the semantic and syntactic features of the grammatical devices expressing causal relationships with negative outcomes in the Korean language and provides a comparative study with equivalent means in the Uzbek language.

KOREYS TILIDA SALBIY NATIJALI SABAB-OQIBAT MA'NOSINI IFODALOVCHI GRAMMATIK VOSITALARNING SEMANTIK TAHLILI

-아서/어서, -기 때문에, -느라고 중심으로

Nigora Nosirova

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti Sharq tillari fakulteti

Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

nigoranosirova0702@gmail.com

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: semantik kategoriya, pragmatik ma'no, sabab-oqibat munosabati, salbiy natija, -아서/어서, -기 때문에, -느라고.

Annotatsiya: Tilning eng muhim vazifalaridan biri inson tafakkurini, uning hissiy va mantiqiy fikrlarini ifodalashdir. Shunday fikriy munosabatlardan biri bu -sabab va oqibat aloqasidir. Sabablik (causality) kategoriyasi inson tafakkurining asosiy mantiqiy qonuniyatlaridan biri bo'lib, barcha tabiiy tillarda o'ziga xos grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. Har bir tilda sabab-oqibat munosabatining ifodalanish usuli tildagi semantik tizim, morfologik qurilish va sintaktik tuzilishga bog'liq holda shakllanadi. Koreys tili ham bu borada istisno emas. Unda sabab ma'nosi asosan qo'shimcha (어미)lar, bog'lovchilar (연결어미) va ayrim leksik birliklar yordamida ifodalanadi. Xususan, -아서/어서, -기 때문에, -느라고 kabi shakllar salbiy natijali sabab-oqibat ma'nosini ifoda etish bilan bir qatorda turli semantik va pragmatik rangbaranglikni ham namoyon qiladi. Mazkur ilmiy maqolada koreys tilidagi salbiy natijali sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalarning semantik-sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi shuningdek, o'zbek tilidagi ekvivalent vositalar bilan qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГРАММАТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЗНАЧЕНИЕ ПРИЧИНЫ И СЛЕДСТВИЯ С ОТРИЦАТЕЛЬНЫМ РЕЗУЛЬТАТОМ В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Нигора Носирова

Преподаватель кафедры корейской филологии факультета восточных языков

Самаркандского государственного института иностранных языков

nigoranosirova0702@gmail.com

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семантическая категория, прагматическое значение, причинно-следственная связь, отрицательный результат, -아서/어서, -기 때문에, -느라고.

Аннотация: Одной из важнейших функций языка является выражение человеческого мышления, его эмоциональных и логических идей. Одним из таких мыслительных отношений

является связь причины и следствия. Категория причинности (causality) является одним из основных логических законов человеческого мышления и выражается во всех естественных языках посредством специфических грамматических и лексических средств. Способ выражения причинно-следственных отношений в каждом языке формируется в зависимости от его семантической системы, морфологического строения и синтаксической структуры. Корейский язык не является исключением в этом отношении. В нём значение причины выражается главным образом с помощью аффиксов (어미), соединительных окончаний (연결어미) и отдельных лексических единиц. В частности, такие формы, как -아서/어서, -기 때문에, -느라고 не только выражают причинно-следственные отношения с отрицательным результатом, но и демонстрируют различные семантические и прагматические оттенки. В данной научной статье анализируются семантико-синтаксические особенности грамматических средств, выражающих причинно-следственные отношения с отрицательным результатом в корейском языке, а также проводится их сопоставление с эквивалентными средствами в узбекском языке.

Kirish. Sabab kategoriyasining lingvistik mohiyati keng ko‘lamli bo‘lib, tilshunoslikda turli jihatdan o‘rganilgan. Tilshunoslik nuqtayi nazarida sabab-oqibat ma’nosini ifodalovchi vositalar harakat, hodisaning yoki holatning yuzaga kelishiga turtki bo‘luvchi sababni bildiradi deb qaraladi. Jumladan, R.A. Budagov, V.V. Vinogradov, A.V. Bondarko kabi rus tilshunoslari sabab-oqibat aloqasini semantik-sintaktik munosabat sifatida izohlaydilar. O‘zbek tilshunosligida ham bir qator tilshunos olimlar aynan sabablik munosabatini grammatik kategoriya sifatida baholab, uning morfologik va sintaktik ifoda vositalarini tahlil qilganlar. Ushbu masalalar ayniqsa M.Asqarova, A.Nurmonov, S.Usmonova kabi olimlarning bir qator ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Mazkur ilmiy maqolada koreys tilidagi salbiy natijali sabablik ma’nosini ifodalovchi grammatik vositalarning semantik xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, o‘zbek tilidagi ekvivalent vositalar bilan qiyosiy jihatdan o‘rganiladi. Semantik jihatdan qaralganda sabablik kategoriyasi uch asosiy turga bo‘linishi kuzatiladi:

1. Obyektiv sabab-voqelikdagi real sababni bildiradi.

Masalan: Yomg'ir yog'gani uchun yo'llar ho'l bo'ldi.

2. Subyektiv sabab – so'zlovchining hissiy yoki baholovchi sababini bildiradi.

Masalan: Unga achinganligim uchun yordam berdim.

3. Shart – sabab aralash holatlar.

Koreys tilida ham sabab kategoriyasining ushbu turlari orqali sabab – oqibat ma'nosi ifoda etilib, ular bir-biridan nozik ma'nolar va xususiyatlar bilan farqlanadi.

Xususan, -아서/어서, -기 때문에, -느라고 kabi koreys tilida salbiy natijali sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi grammatik vositalar bir qator turli semantik va pragmatik rangbaranglikni namoyon etish bilan birga tabiiy nutq ko'nikmalariga ega bo'lishni ham ta'minlaydi.

Asosiy qism. Koreys tilida sabab ma'nosi asosan bog'lovchi qo'shimchalar (연결어미) orqali ifodalanib, mazkur birliklar koreys tili o'qitishda ayniqsa muhim grammatik mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu birliklarning gap qurilishidagi o'rni va ma'nosi birmuncha murakkablikni kasb etadi. Shu bois koreys tilini o'rganayotgan o'quvchilar uchun sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi

1 K. Махмудов. O'zbek tilining semantik sintaksisi. — Toshkent: Fan, 2010. vositalar mavzusini tushinishda qiyichlikka uchrashlari tabiiydir. Quyida koreys tilida sabab-oqibat ma'nolarini ifodalaydigan grammatik vositalarning asosiy turlari, ularning semantik-sintaktik farqlari, ma'no ko'lami hamda qo'llanish uslubi haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari, bu shakllarning grammatik cheklovlari va nutqdagi o'ziga xos qo'llanish xususiyatga ega ekanligi bilan ham ushbu birliklarni sinchikovlik bilan o'rganishni talab etadi. Shu sababli sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi bog'lovchi shakllarning ma'no ko'lami, grammatik tuzulishi, nutqiy xususiyatlari, o'xshashlik va farqli jihatlarini yoritishning ahamiyati katta. Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda koreys tili ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan, darsliklarda hamda TOPIK (Test of Proficiency in Korea)-koreys tili bilim darajasini aniqlash testlarida tez-tez uchraydigan va muloqotda amaliy jihatdan eng faol ishlatiladigan birliklar tanlab olingan.

1. -아서/어서 koreys tilida uchraydigan eng asosiy va ko'p uchraydigan sabab ma'nosini ifodalovchi bog'lovchi grammatikadir. -아서/어서 obyektiv sababni ifodalaydi va odatda oddiy, mantiq va mazmunan o'zaro bog'liq bo'lgan ikki harakat-holatni birlashtiradi.

Misol: 비가 와서 학교에 가지 않았어요. (Yomg'ir yog'gani uchun maktabga bormadim.)

Bu qo'shimcha so'zlovchining hissiy bahosini ifodalamasdan, harakat-holatni tabiiy sabab-oqibat bog'lanishini ko'rsatadi.² -아서/어서 quyidagi grammatik

xususiyatlarni ifodalaydi:

–아서/어서 bilan yasalgan gaplarda gapning egasida cheklov yo‘q ya‘ni gapning egasi ikkita bo‘lishi ham mumkin, ammo bu faqat grammatik xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib semantik ma‘no tomonidan, odatda gapning egasi bitt bo‘lishini taqazo etadi.

2 남기심·고영근, 1993. 『표준국어문법론』. 서울: 탑출판사.

Masalan: 저는 배가 아파서 병원에 갔어요. (Men qornim og‘rigani sababli kasalxonaga bordim.)

Bu gapda gapning egasi bir xil ya‘ni 저(men). Ammo, 비가 와서 나는 우산을 썼어요. (Yomg‘ir yog‘gani sababli men soyabon oldim.) Ushbu gap grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘lsa-da semantik jihatdan ega cheklovi mavjud.

–아서/어서 ning gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarida qo‘llash chegarasi bor bo‘lib, taklif gap hamda buyruq gaplarda ishlatilmaydi.

–아서/어서 o‘tgan zamon qo‘shimchasi (았/었)ga birikmaydi. (x 갔어서)

–아서/어서 stilistik jihatdan so‘zlashuv uslubida ham rasmiy-badiiy uslubda ham ishlatiladi.

2. –기 때문에 navbatdagi koreys tilidagi sabab-oqibatni ifodalaydigan grammatik vositalardir. Bu grammatika avvalo, salbiy natijali sababni ham odatiy sabab ma‘nosini ham ifodalashi mumkinligi bois, neytral –(아서/어서) dan farqili o‘laroq rasmiy uslubga xos bo‘lib, asosan real voqeylik sababini ifodalaganda ishlatiladi. –기 때문에 bilan ifodalangan gaplarda sabab- oqibat ma‘nosi sezilarli kuchli urg‘u va ta‘kidni bildiradi.

Misol: 그 선수는 항상 1위를 했기 때문에 이번 경기의 결과에 크게 실망했다. (Bu sportchi har doim 1-o‘rinni egallab kelganligi sababli bu safargi musobaqa natijasidan juda hafsalasi pir bo‘ldi.)

Bu gapda –아서/어서 yoki –(으)므로 ni qo‘llashdan ko‘ra –기 때문에 dan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi-ki bosh gapning mazmuni ergash gapning sababini kuchaytirib-ta‘kidlab kelganlik ma‘nosi bor ekanligini ko‘rsatayapti.

–기 때문에 fe‘l, sifat so‘z turkumiga qo‘shilib, ot so‘z turkumiga –이기 때문에 shaklida birikadi.

Misol: 학생이기 때문에 할인받을 수 있어요. (Talaba bo‘lganingiz sababli chegirma olishingiz mumkin.)

–기 때문에 grammatik jihatdan ruxsat, buyruq, iltimos, taklif mazmunidagi gaplarda ishlatilmaydi. Semantik xususiyatlariga ko‘ra –기 때문에 vositasi aniq va matiqan, asosli sababni ifodalaydi. Va bu sabab obyektiv, ya’ni fakt yoki holatga asoslangan bo‘ladi.

Misol: 비가 오기 때문에 운동을 못 했어요. (Yomg‘ir yog‘gani uchun mashq qila olmadim.)

–기 때문에 boshqa sabab ma’nosini bildiruvchi grammatik shakllardan farqli ravishda nutq sohibining his tuyg‘usiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shuningdek, –기 때문에 orqali ifodalangan gapda birinchi qism sababni bildirsa, ergash qismi oqibat-natijani ifodalaydi. –기 때문에 qo‘shimchasi bilan fe’ning oraliq qo‘shimchalari(선어말어미) birikuvida cheklov bor bo‘lib, odatda zamon, istak, taxmin, hurmat, modal shakllari bilan birikmaydi. Chunki –기 때문에 bu fe’ning otlashgan shakli bo‘lib, –기 nominalizator vazifasini bajaradi. Bu paytda fe’ning otlashgan shakli va sabab bog‘lovchisi -때문에 birgalikda birikma hosil qiladi.

–느라고 3 koreys tilida navbatdagi harakat yoki holatning sabab-oqibat ma’nosini ifodalovchi bog‘lovchi qo‘shimchalardir.

Bu qo‘shimchalarning umumiy jihati shundaki, bu grammatikalarning barchasi salbiy natijali gaplarning sababini ifodalaydi. Ya’ni bu grammatik vositalar salbiy oqibat ifodalovchi sabab bog‘lovchilaridir. Bu grammatikalarning barchasi biror harakat sabab bo‘lib, salbiy natija yuz berishini bildiradi.

Ammo har biri sabab va oqibat orasidagi vaqt munosabati hamda so‘zlovchining 3 이익섭 (Li Ikseop), 1995. 『한국어 문법론』. 서울: 학문사. baholash darajasiga ko‘ra farqlanadi. –느라고 bilan ifodalangan gaplarda bosh gapdagi harakat bilan band bo‘lish sababidan, kutilgan boshqa ishni bajara olmaslik yoki yomon natija chiqqan holatni ifodalaydi.⁴ Misol: TV 보느라고 숙제를 못 했어요. (Televizor ko‘rayotganim uchun uyga vazifalarni qila olmadim.) Ushbu gapda televizor ko‘rgan ham uyga vazifalarni qilolmagan ham men-gapning egasidir. Gapdagi bosh gap va ergash gap bir vaqt oralig‘ida kechadi-vaqt jihatidan bir xil vaqt munosabati mavjud.

–느라고 qo‘shimchasi faqat fe’l negiziga birikadi. Ushbu qo‘shimcha bilan yasalgan gaplarda ikki harakat(bosh va ergash gap) bir vaqtning o‘zida sodir bo‘ladi. –느라고 birikkan gapning egasi bir xil bo‘lishlikni talab etadi.

–느라고 ham odatda buyruq va taklif gaplarda ishlatilmaydi. Darak gaplarda erkin ishlatiladi. So‘roq gaplarda asosan -지요?, -잖아요? kabi so‘roq birliklar bilan birikkanda tasdiq-so‘roq ma’nosini ifodalaydi.

Misol: 요즘 시험 공부하느라고 많이 바쁘지요? (Shu kunlarda imtihonga tayyorgarlik ko'rayotganiz uchun bandsiz-a?)

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Sabablik kategoriyasi koreys tilida murakkab semantik-grammatik tizimga ega bo'lib, qo'shimchalar orqali qat'iy grammatikallashgan.

- Koresy tilidagi sabab-oqibat ma'nosini ifodalovchi birliklarning har biri o'ziga xos semantik soyaga ega: -아서/어서 obyektiv sababni, subyektiv sababni bildiradi.

4 김방한 (Kim Bang-han). 1998. 『한국어 유사 문법 연구』. 서울: 태학사.

Koreys tilidagi sabab ifodalari o'zbek tiliga nisbatan aniqroq differensial xususiyatga ega.

- Qiyosiy tahlil sabab kategoriyasining turli tillarda, jumladan koreys va o'zbek tillarida ham o'ziga xos tarzda grammatikallashganini ko'rsatadi.

- Mazkur mavzu koreys tilini o'qitish jarayonida ham juda muhim ahamiyatga ega, chunki koreys tilini o'rganuvchilar bu qo'shimchalar orasidagi semantik farqni bilish orqali tabiiy nutq hosil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Koreys tilida sabablik ma'nosidagi grammatik birliklar ko'p bo'lsa-da, ularni qaysi o'rinda qaysi biri mos tushishini aniq tahlil qila olish malaksiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

김방한 (Kim Bang-han). (1998). 『한국어 유사 문법 연구』. 서울: 태학사.

2. 이익섭, 임홍빈. (2003). 『국어문법론』. 서울: 학연사.

3. 최현배. (1980). 『우리말본』. 서울: 정음사.

4. 이은규. (2006). “한국어 원인·이유 표현의 통사·의미적 특성.” 『한국언어학』, 제 37 호.

5. 김미형. (2012). “결과 부정적 원인 표현의 담화적 기능.” 『한국어 의미학』,

6. Сайфуллаева, P. P. (2010). Hozirgi o'zbek adabiy tili: Morfologiya. Toshkent: O'qituvchi.

7. Nurmonov, A. (2001). Til va tafakkur munosabati. Toshkent: Universitet.